



## QURILISH ISHLARI

2020- yil yanvar-may oylarida

Joriy yilning yanvar-may oylarida jami 820,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 94,5 % ni tashkil qildi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 7,4 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 45,7 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 737,1 mlrd. so‘mni yoki jami qurilish ishlarining 96,6 % ni tashkil etib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 89,8 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 76,1 mlrd. so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 84,9 % ni tashkil qildi.



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu-o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 71,5 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,2 % punktga ko'paydi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 16,8 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,2 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 11,7 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0 % ga ko'paydi.



## Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

(jamiga nisbatan,% da)

2019- yil yanvar-may

8,7



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

24,0



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

67,3



Binolar va  
inshootlarni qurish

2020- yil yanvar-may

11,7



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

16,8



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

71,5



Binolar va  
inshootlarni qurish



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topadi.*




## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi

(mlrd. so'm)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo'yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>820,7</b>	<b>7,4</b>	<b>737,1</b>	<b>76,1</b>
<i>shaharlar</i>				
<b>Guliston</b>	<b>241,8</b>	<b>6,2</b>	<b>223,4</b>	<b>12,2</b>
<b>Shirin</b>	<b>44,2</b>	<b>-</b>	<b>43,5</b>	<b>0,7</b>
<b>Yangiyer</b>	<b>77,7</b>	<b>-</b>	<b>75,3</b>	<b>2,4</b>
<i>tumanlar</i>				
<b>Boyovut</b>	<b>72,7</b>	<b>0,7</b>	<b>65,6</b>	<b>6,3</b>
<b>Guliston</b>	<b>44,9</b>	<b>-</b>	<b>38,3</b>	<b>6,6</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>68,4</b>	<b>-</b>	<b>64,9</b>	<b>3,5</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>66,8</b>	<b>-</b>	<b>62,8</b>	<b>4,0</b>
<b>Sardoba</b>	<b>26,8</b>	<b>-</b>	<b>21,2</b>	<b>5,6</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>30,4</b>	<b>0,1</b>	<b>27,8</b>	<b>2,5</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>87,7</b>	<b>0,1</b>	<b>60,4</b>	<b>27,2</b>
<b>Xovos</b>	<b>59,3</b>	<b>0,3</b>	<b>53,9</b>	<b>5,1</b>

## Hududlarda qurilish ishlarining o‘shish sur‘atlari

(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o‘shish sur‘ati 93,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo tumanida 86,4 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o‘shish sur‘ati Xovos tumanida kuzatilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 96,8 % ni tashkil qildi.




## Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan,% da)

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 737,1 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 89,8 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,6 % ni tashkil qildi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 7,4 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 0,9 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 45,7 % ni tashkil qildi.


Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 76,1 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlarining 9,3 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 84,9 % ni tashkil qildi.






## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan,% da)



 Davlat mulkchilik shakli



 Nodavlat mulkchilik shakli

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 48,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,9 % ni tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,0 % punktga ko‘paydi.




Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 772,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 94,1 % ni (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,0 % punktga kamayish) tashkil qildi.



## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan,% da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 27,6 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 10,0 %, Yangiyer shahriga 8,9 %, Boyovut tumaniga 8,3 % va Mirzaobod tumanida 7,8 % dan to'g'ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi.

Aloqa telefoni: (67) 225-02-37  
(67) 236-86-27

